Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Oktabr
№10, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 518-sahifa.
2026-yil, oktabr.

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

KONSTANTIN IVANOVICH KURPAYANIDI
Green energy transition in Central Asia: capacity growth, technological diversification and system constraints.....11
TURSUNKULOVA GULCHIROY BURXONOVNA
Meva-sabzavotchilik korxonalarida biologik aktivlarni hisobga olishni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....24
MO‘MINOV ABDUVALI AKBARALIEVICH, DJO‘RAEV MUQIMJON YAQUBJONOVICH
Tritikale seleksiyasida molekulyar markerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi: QTL, SSR, SNP va KASP yondashuvlari asosida.....30
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq yetishtirishda oqqanotga qarshi kimyoviy himoya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....43
SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH
Valyuta kursi tebranishlari indeksini hisoblash va baholash.....53
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq ekinlarida o‘rgimchak kanaga qarshi kimyoviy kurash choralarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....63
SHOMURODOV TOHIR BOYMUROD O‘G‘LI
Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda aholi daromadlarining o‘rni haqidagi nazariy yondashuvlar.....73
МУСТАФОКУЛОВА ЗАРИФА
Сравнительный анализ лидерства в условиях кризиса и роль молодых лидеров в развитии.....80
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarining iqtisodiy mohiyati, mazmuni va tasnifi.....87
RAXIMJONOVA SHOHSANAM BAXODIROVNA
Davlat-xususiy sheriklik asosida ijtimoiy soha infratuzilmasini rivojlantirishda "Value for Money" (VfM) baholash mexanizmini takomillashtirish.....95
QURBANOVA OYDIN TO‘LQIN QIZI
Ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligini baholashning integral ko‘rsatkichini shakllantirish.....101
SADIKOVA SHOHIDA OBIDQUL QIZI
O‘zbekistonda piyoz yetishtirishning iqtisodiy o‘rni va samaradorligi.....108
XAKIMOV RASHID
Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning o‘rni va samaradorligi.....119

TOJIMATOV IZZATBEK IKROMALI O‘G‘LI
Don mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida intellektual marketing strategiyasini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....133
SODIQOVA GAVHAR XAYRULLA QIZI
Xodimlarni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....142
ERGASHEV ASADBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI, TURSUNOV G‘IYOS SUNNAT O‘G‘LI
Meva-sabzavotlarni qayta ishlashda hosil bo‘ladigan ikkilamchi resurslarni biotexnologik qayta ishlash va ulardan samarali foydalanish.....148
RASULOV XAMIDJON YAKUBOVICH
Raqamli texnologiyalar va CRM tizimlarining kichik biznesdagi o‘rni.....155
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarini buxgalteriya hisobini tashkil etish va uning tahlili.....168
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini ekonometrik baholash.....185
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi rolini baholashning nazariy-metodologik asoslari.....192
MUHAMMADIEV NAUFALBEK AZIZXON O‘G‘LI
Elektron tijoratda sun’iy intellektdan foydalanishning kichik biznes savdo hajmiga ta’siri.....202
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ
Процедура нормирования частных показателей при оценке ресурсного потенциала аграрного сектора: сравнительный анализ методов и обоснование выбора.....210
XASANOVA RUXSORA RASULJON QIZI
O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishning hududiy xususiyatlari va iqtisodiy samaradorligini oshirish.....223
UMAROVA XUSNORA DILMUROD QIZI
Orolbo‘yi mintaqasida xizmat ko‘rsatish korxonalarini moslashuvchan (adaptiv) boshqarishning ma’lumotlarga asoslangan modelini takomillashtirish.....229
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ, ХОЛБЕКОВ ЖУРЪАТ АБДИНАБИЕВИЧ
Теоретико-методологические основы оценки ресурсного потенциала аграрного сектора: концептуальный подход и методика интегральной оценки.....234
UMARALIYEV DIYORBEK SHUKIRALI O‘G‘LI
Tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etishning fermer xo‘jaliklari xarajat va daromadlariga ta’siri: subsidiya samaradorligining iqtisodiy bahosi (2019–2025 yillar).....247

MIRAXMEDOVA KAMOLA
O‘zbekistonda turizm korxonalarini strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....254
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
O‘zbekistonning xalqaro soliq tizimiga integratsiyasi: BEPS minimum standartlari va ularning milliy soliq siyosatidagi ahamiyati.....261
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Anor yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushini iqtisodiy baholash.....274
BAXADIR ADILCHAEV
Agroturizm qishloq iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va hududlarning barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....283
XO‘JAMOVA LATOFAT ASADULLAEVNA
Yashil iqtisodiyot sharoitida agrobiznesda innovatsion jarayonlarni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari.....290
BOZOROV BOBUR HAQBERDIYEVICH
Qurilishni moliyalashtirish samaradorligiga narx omillarining ta’sirini ekonometrik baholash.....297
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
Chegaralararo soliq munosabatlari: muammolar va rivojlanish istiqbollari.....307
KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
O‘zbekiston kimyo sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida mavsumiylikning moliyaviy barqarorlikka ta’siri: panel tahlil (2018–2026-yillar).....322
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Surxondaryo viloyatida anor ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....331
ЛЯМКИНА ВИКТОРИЯ АЛЕКСАНДРОВНА, НАБИЕВА АНОРГУЛ МУХАМЕТКАЗИЕВНА
Механизмы трансформации и управления предпринимательским университетом в условиях цифровой экономики.....338
YUSUFALIYEV OLIMJON ABDURAXMONOVICH
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish.....347
SAYITQULOV JAHONGIR ILHOMOVICH
Tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini takomillashtirish istiqbollari.....358
KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
Mavsumiy moliyaviy siklni identifikatsiyalash va moliyaviy barqarorlikning mavsumiy tuzatilgan ko‘rsatkichlari (mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchi korxona misolida).....365
QODIROV ZOHIDJON ERALIEVICH
Suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mohiyati va tamoyillari.....373
ZAFAR QODIROV ABDIVAXOBOVICH
Long-term asset valuation and accounting in Uzbekistan: a comparative analysis of national accounting standards.....381

SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
AQSH va Yevropa ittifoqi mamlakatlari organik meva-sabzavotlar sertifikatlaridagi farqlar.....389
KUBAYEV DJASUR ABDUMUMINOVICH
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish omillari.....395
IBODILLAYEV HABIBULLA ABDULLAYEVICH
Madaniy meros obyektlarida turizm tadbirkorligini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash yo'llari.....401
SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
IFOAM – organics international: organik standartlar, sertifikatlash, organik bozor va siyosat bo'yicha statistik tahlili.....407
MAYLIYEVA SADOQAT SAFAYOZOVNA
Mintaqada tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanishning ustuvor yo'nalishlari (Xorazm viloyati misolida).....413
SHIRINOV UCHQUN ABDUXALILOVICH
MHXS talablari asosida tashqi segmentar hisobotni shakllantirish metodikasi..421
ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH, NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA
Klasterlash va infratuzilma o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....430
SA'DULLAYEVA SAYYORA NASILLO QIZI
Neft-gaz sanoati korxonalarida moddiy xarajatlarning kompleks tahlili.....439
ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH, NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA
Klasterlashni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari.....447
SATTAROV SHUXRAT XASANOVICH
O'zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanishi va diversifikatsiya tendensiyalari.....458
KAMALKARIEVA NILUFAR XALIKBEKOVNA
Qurilish materiallari korxonalarida yangi mahsulotlarni o'zlashtirish va sifatni oshirishning iqtisodiy samaradorligini baholash.....467
СЕЙТНАЗАРОВ БАХАДИР МУРАТБАЕВИЧ
Экономическая оценка устойчивого развития аграрного сектора в условиях дефицита водных ресурсов (на примере Республики Каракалпакстан)....475
TURDIYEV ULUG'BEK QAYUMOVICH
Sanoat o'sishining uzoq muddatli rivojlanish tendensiyalarini aniqlash.....484
OBLOQULOV ABDURAUF OLIMJON O'G'LI
Institutsional iqtisodiyot va iqtisodiy o'sish: rasmiy va norasmiy institutlarning roli.....493
JUMANAZAROV KODIRJON SALYAYEVICH
Sanoat korxonalarida raqamli strategiyani shakllantirishning metodologik yondashuvlari.....501

NARMAMATOV IXTIYAR BAXTIYAROVICH, SHERMATOVA NARGIZA ZAFAR QIZI
Zamonaviy bozor sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi subyektlarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash strategiyalari……512
ALIYEV AZIM TOLIB O‘G‘LI
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini boshqarish usullari va uslublarini takomillashtirish: nazariy-amaliy tahlil va modellashtirish……518

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

AKSIYADORLIK JAMIYATLARI FAOLIYATINI BOSHQARISH USULLARI VA USLUBLARINI TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIY-AMALIY TAHLIL VA MODELLASHTIRISH

ALIYEV AZIM TOLIB O‘G‘LI
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti
Iqtisodiyot kafedra katta o‘qituvchisi
E-mail: azimjon.aliyevOO@mail.ru
ORCID: 0009-0007-9885-8695

Annotatsiya. Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini boshqarish usullari va uslublarini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari hamda amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Korporativ boshqaruv samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar, aksiyadorlar va boshqaruv organlari o‘rtasidagi munosabatlar, axborot shaffofligi, moliyaviy nazorat va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: aksiyadorlik jamiyati, korporativ boshqaruv, boshqaruv usullari, boshqaruv uslublari, boshqaruv samaradorligi, integral indeks.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретико-методические основы и практические аспекты совершенствования методов и стилей управления деятельностью акционерных обществ. Проанализированы факторы, влияющие на эффективность корпоративного управления, взаимоотношения между акционерами и органами управления, информационная прозрачность, финансовый контроль, а также возможности применения цифровых технологий.
Ключевые слова: акционерное общество, корпоративное управление, методы управления, стили управления, эффективность управления, интегральный показатель.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations, as well as the practical aspects, of improving the methods and styles of managing the operations of joint-stock companies. It analyzes the factors influencing the effectiveness of corporate governance, relations between shareholders and governing bodies, information transparency, financial control, and the potential for applying digital technologies.
Keywords: joint-stock company, corporate governance, management methods, management styles, management efficiency, integral index.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini samarali tashkil etish, investitsion jozibadorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlarining barqaror faoliyati nafaqat moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish imkoniyatlariga, balki boshqaruv qarorlarining sifati, ichki nazorat, axborot shaffofligi hamda manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarning samarali tashkil etilishiga ham bog‘liq.

Shu sababli iqtisodiy rag‘batlantirish, strategik rejalashtirish, moliyaviy nazorat va raqamli texnologiyalardan foydalanishga asoslangan zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajribada korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining

2023-yilda yangilangan G20/OECD korporativ boshqaruv tamoyillarida aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish, axborotlarning ochiqligi, kuzatuv kengashining mas'uliyati va uzoq muddatli barqarorlik masalalari muhim yo'nalishlar sifatida belgilangan [1].

O'zbekistonda ham aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tartibga solish va korporativ boshqaruvni rivojlantirish bo'yicha huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2014-yil 6-maydagi O'RQ-370-sonli "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining muhim huquqiy asosini tashkil etadi [2]. Shuningdek, 2022-yil 29-martdagi O'RQ-760-sonli Qonun bilan korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirishlar kiritilgan [3]. 2023-yil 2-sentabrdagi PQ-291-sonli qarorda esa kapital bozorini rivojlantirish va investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish masalalariga e'tibor qaratilgan [4]. Ushbu islohotlar aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv sifatini oshirish va investorlar ishonchini mustahkamlash zaruratini yanada kuchaytiradi.

Mavzuning nazariy asoslari xorijiy olimlarning korporativ boshqaruvga oid ilmiy qarashlari bilan bog'liq. M. Jensen va W. Meckling agentlik nazariyasi orqali mulkdorlar hamda menejerlar manfaatlari o'rtasidagi tafovutlarni tahlil qilgan[5]. R.Freeman manfaatdor tomonlar nazariyasida korxona faoliyatida aksiyadorlardan tashqari boshqa manfaatdor guruhlar manfaatlarini hisobga olish muhimligini ta'kidlagan [6]. A. Shleifer va R. Vishny esa korporativ boshqaruvda investorlar huquqlarini himoya qilish va kapitaldan samarali foydalanish masalalarini o'rgangan [7]. Mazkur ilmiy yondashuvlar aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv samaradorligini oshirish uchun nazorat, hisobdorlik va rag'batlantirish mexanizmlarini uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, boshqaruv samaradorligini faqat moliyaviy natijalar asosida baholash yetarli emas. Axborot shaffofligi, risklarni boshqarish, ichki nazorat, strategik maqsadlarning bajarilishi va raqamli boshqaruv darajasini ham hisobga olish lozim. Shu nuqtayi nazardan, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini kompleks baholashga imkon beruvchi usullarni ishlab chiqish va iqtisodiy-matematik modellashtirish vositalaridan foydalanish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini boshqarish usullari va uslublarini takomillashtirishning nazariy asoslarini o'rganish hamda boshqaruv samaradorligini baholash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun boshqaruvning nazariy yondashuvlarini o'rganish, samaradorlikka ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, korporativ boshqaruv mexanizmlarini tahlil qilish va integral baholash hamda iqtisodiy-matematik modellashtirish yondashuvini taklif etish vazifalari belgilandi.

Tadqiqot obyekti aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv tizimi, tadqiqot predmeti esa boshqaruv usullari va uslublarini takomillashtirish bilan bog'liq tashkiliy-iqtisodiy munosabatlardan iborat. Tadqiqotda tizimli va qiyosiy tahlil, ilmiy umumlashtirish hamda iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

Umuman olganda, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini boshqarish usullari va uslublarini takomillashtirish korporativ nazoratni kuchaytirish, boshqaruv qarorlarining asoslanganligini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini boshqarish usullari va uslublarini takomillashtirish masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda korporativ boshqaruv sifati, kuzatuv kengashi faoliyati, raqamli transformatsiya va investitsion samaradorlik bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Mazkur yo‘nalishdagi yangi tadqiqotlar boshqaruv samaradorligini faqat moliyaviy natijalar bilan emas, balki ichki nazorat, axborot shaffofligi, risklarni boshqarish va strategik qarorlar sifati orqali ham baholash zarurligini ko‘rsatadi.

OECD tomonidan tayyorlangan *Corporate Governance Factbook 2023* hisobotida turli mamlakatlarda korporativ boshqaruv tizimlari, kuzatuv kengashlarining vazifalari, ichki nazorat, risklarni boshqarish va axborotni oshkor qilish mexanizmlari tahlil qilingan [8]. Hisobot natijalari boshqaruv organlarining strategik nazorati va hisobdorligini kuchaytirish korporativ boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismlari ekanini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv vakolatlarini aniq taqsimlash va boshqaruv qarorlarini muntazam nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini asoslaydi.

A. M. Solarino va B. K. Boyd tomonidan amalga oshirilgan meta-tahlilda direktorlar kengashi samaradorligi va mamlakatlarning institutsional xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan. Mualliflar 40 mamlakatni qamrab olgan 86 ta ilmiy maqola natijalarini umumlashtirib, boshqaruv organlarining mustaqilligi korxona natijalariga barcha sharoitlarda bir xil ta’sir ko‘rsatmasligini aniqlagan [9]. Tadqiqotda norasmiy institutlar va milliy biznes muhiti boshqaruv mexanizmlarining samaradorligini belgilashda muhim omillar sifatida izohlanadi. Bu xulosa xorijiy boshqaruv tajribasini O‘zbekiston sharoitiga tatbiq etishda milliy institutsional xususiyatlarni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

M. Altın tomonidan 2023-yilda chop etilgan meta-tahlilda direktorlar kengashining xususiyatlari va korxona faoliyati natijalari o‘rtasidagi munosabatlar 60 ta tadqiqot asosida baholangan. Natijalarga ko‘ra, kengash a’zolarining mustaqilligi, yig‘ilishlar chastotasi, ayol a’zolar ulushi va kasbiy malakasi ayrim samaradorlik ko‘rsatkichlari bilan ijobiy bog‘liqlik namoyon etgan, kengash hajmining ta’siri esa statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lmagan [10]. Mazkur tadqiqot boshqaruv samaradorligini baholashda organlar tarkibiga oid oddiy miqdoriy mezonlardan tashqari, ularning faoliyati sifati va amaliy natijalarini ham hisobga olish zarurligini asoslaydi.

Raqamli texnologiyalarning boshqaruv jarayonlariga ta’siri E. Calderon-Monge va D. Ribeiro-Soriano tomonidan tizimli adabiyotlar tahlili asosida o‘rganilgan. Mualliflar tadqiqotida 119 ta ilmiy sharh tahlil qilinib, raqamlashtirishning boshqaruv, moliya, hisob va boshqa korporativ funksiyalar

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

rivojlanishidagi ahamiyati yoritilgan [11]. Ushbu yondashuv raqamli tizimlarni joriy etishni faqat texnik yangilanish sifatida emas, balki boshqaruv axborotlarini qayta ishlash, qarorlar qabul qilish va ichki jarayonlarni muvofiqlashtirish mexanizmlarini o‘zgartirish sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

M. Ahdadou, A. Aajly va M. Tahrouch tomonidan olib borilgan tadqiqotda sun’iy intellekt vositalaridan korporativ boshqaruvda foydalanish imkoniyatlari tizimli adabiyotlar tahlili orqali o‘rganilgan [12]. Ushbu yo‘nalishdagi izlanishlar sun’iy intellektni tahliliy qarorlar, nazorat va muvofiqlik jarayonlariga integratsiya qilish bilan bir qatorda, axloqiy mas’uliyat, huquqiy cheklovlar va algoritmik qarorlarning ishonchliligi kabi masalalarni ham hisobga olish lozimligini ko‘rsatadi. Demak, raqamli boshqaruv samaradorligini baholashda texnologik imkoniyatlar bilan birga ma’lumotlar sifati va nazorat mexanizmlarini ham o‘rganish zarur.

A. Martiny va hammualliflar tomonidan 2024-yilda chop etilgan tizimli sharhda korxonalarning ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilingan [13]. Mualliflar tadqiqot natijalaridagi farqlar mamlakatlar kesimidagi xususiyatlar va ESG ma’lumotlarini taqdim etuvchi manbalarning turlicha yondashuvlari bilan ham bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. Ushbu natijalar korporativ boshqaruvni baholashda yagona mezonlar tizimini shakllantirish, ko‘rsatkichlarning mazmunini aniq belgilash va ma’lumotlarning taqqoslanuvchanligini ta’minlash muhimligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston sharoitidagi korporativ boshqaruv masalalari Jahon bankining 2023-yil dekabrda e’lon qilingan *Uzbekistan: Integrated State-Owned Enterprises Framework (iSOEF) Assessment* hisobotida ham yoritilgan [14]. Hisobotda davlat korxonalari faoliyati, boshqaruv va hisobdorlik mexanizmlari, direktorlar kengashi hamda menejment faoliyati, moliyaviy natijalarni monitoring qilish va axborotni oshkor etish bilan bog‘liq masalalar tahlil qilingan. Unda davlat ishtirokidagi korxonalarda boshqaruv va shaffoflik mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurati ko‘rsatiladi. Mazkur xulosalar O‘zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlari uchun milliy institutsional sharoitlarga mos boshqaruv mezonlarini ishlab chiqishning amaliy ahamiyatini kuchaytiradi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan ilmiy manbalar tahlili aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv samaradorligiga boshqaruv organlarining xususiyatlari, institutsional muhit, raqamli transformatsiya, axborot shaffofligi va risklarni nazorat qilish mexanizmlari ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, turli tadqiqotlarda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar va metodologiyalarning farqlanishi natijalarni bevosita taqqoslash imkoniyatini cheklaydi. Ayniqsa, O‘zbekiston sharoitida boshqaruvning tashkiliy, moliyaviy va raqamli jihatlarini yagona baholash tizimida birlashtirish masalasi qo‘shimcha empirik izlanishlarni talab qiladi.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv samaradorligini strategik boshqaruv, moliyaviy nazorat, axborot shaffofligi, risklarni boshqarish va raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘rsatkichlari asosida kompleks baholash yondashuvini ishlab chiqishga e’tibor qaratiladi. Ushbu yondashuvni integral indeks hamda iqtisodiy-matematik modellashtirish

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

vositalari bilan birlashtirish boshqaruvdagi muammoli yo‘nalishlarni aniqlash va ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berishi kutiladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda tizimli va qiyosiy tahlil, ilmiy umumlashtirish hamda iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvi samaradorligini baholash uchun moliyaviy nazorat, axborot shaffofligi, risklarni boshqarish va raqamli texnologiyalar ko‘rsatkichlarini qamrab oluvchi integral indeks taklif etildi. Shuningdek, boshqaruv samaradorligi va moliyaviy natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish metodologiyasi ishlab chiqildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvini takomillashtirish natijalari boshqaruv organlarining vakolatlari aniq belgilanishi, qarorlar uchun javobgarlikning ta’minlanishi va natijalarni muntazam baholash bilan chambarchas bog‘liq. OECD korporativ boshqaruv tamoyillarida aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish, axborotning o‘z vaqtida oshkor etilishi va direktorlar kengashining strategik nazorati muhim yo‘nalishlar sifatida qayd etilgan [15]. Bu tamoyillar boshqaruvni faqat ma’muriy nazorat bilan cheklamasdan, hisobdorlik va uzoq muddatli qiymat yaratishga yo‘naltirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot doirasidagi tahlil shuni ko‘rsatadiki, boshqaruv samaradorligini faqat foyda yoki tushum bilan o‘lchash yetarli emas. Moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda axborot shaffofligi, risklarni boshqarish, strategik maqsadlarning bajarilishi va raqamli jarayonlarning rivojlanganligi ham baholanishi lozim. OECDning davlat korxonalarini boshqarish bo‘yicha yangilangan tavsiyalari mulkdorlik funksiyasi, kuzatuv va hisobotdorlik mexanizmlarini aniq ajratishning ahamiyatini ta’kidlaydi [16]. Ushbu yondashuv davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlari uchun ham dolzarbdir.

Raqamli transformatsiya boshqaruv ma’lumotlarini tezkor yig‘ish, hisobotlarni avtomatlashtirish va risklarni erta aniqlash imkonini beradi. Biroq texnologiyaning o‘zi boshqaruv sifatini avtomatik ravishda oshirmaydi: ma’lumotlarning ishonchliligi, kiberxavfsizlik, xodimlarning malakasi va qarorlar uchun javobgarlik ham ta’minlanishi kerak. Raqamlashtirish va boshqaruv bo‘yicha tizimli adabiyotlar tahlili raqamli vositalarni tashkilotning strategiyasi hamda ichki jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi [17].

Tadqiqotda boshqaruv samaradorligini kompleks baholash uchun integral indeksdan foydalanish taklif etildi. Indeks strategik boshqaruv, moliyaviy nazorat, axborot shaffofligi, risklarni boshqarish va raqamli boshqaruv kabi yo‘nalishlarni yagona ko‘rsatkichda birlashtiradi. Uning hisoblanishi uchun har bir mezon bir xil diapazonga normallashtiriladi, so‘ngra asoslangan vaznlar bilan umumlashtiriladi. Integral indeksning umumiy ko‘rinishi quyidagicha ifodalanadi:

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

$$G = \Sigma (w_i \times x_i), \quad \Sigma w_i = 1$$

Bu yerda G — boshqaruv samaradorligi indeksi; x_i — normallashtirilgan ko‘rsatkich; w_i — tegishli ko‘rsatkichning vazni. Indeksning amaliy qiymati haqiqiy korporativ va moliyaviy ma’lumotlar asosida hisoblanganda aniqlanadi.

1-jadval

Aksiyadorlik jamiyati boshqaruv samaradorligini baholash mezonlari

Yo‘nalish	Baholash mezoni	Kutiladigan boshqaruv natijasi
Strategik boshqaruv	Strategik KPI bajarilishi; reja va fakt tafovuti	Maqsadlar va kundalik faoliyat uyg‘unlashadi
Moliyaviy nazorat	Budjet intizomi; rentabellik; xarajatlar nazorati	Resurslardan foydalanish yaxshilanadi
Axborot shaffofligi	Hisobotlarning o‘z vaqtida e’lon qilinishi; ma’lumot sifati	Aksiyadorlar va investorlar ishonchi mustahkamlanadi
Risklarni boshqarish	Risklar reyestri; nazorat choralari bajarilishi	Ehtimoliy yo‘qotishlar erta aniqlanadi
Raqamli boshqaruv	Avtomatlashtirilgan jarayonlar; ma’lumotlar sifati	Qaror qabul qilish tezligi va kuzatuv yaxshilanadi

Manba: muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar va taklif etilgan metodologik yondashuv asosida tuzildi.

1-jadvaldan ko‘rinadiki, boshqaruvni baholashda har bir yo‘nalish bo‘yicha aniq mezonlar belgilanishi kerak. Masalan, strategik boshqaruvni faqat reja mavjudligi bilan emas, balki uning bajarilish darajasi orqali baholash lozim. Xuddi shuningdek, raqamli boshqaruvda dasturiy ta’minot mavjudligi emas, undan foydalanish natijasida hisobotlar tezligi, ma’lumotlar sifati va nazorat imkoniyatlarining yaxshilanishi muhim hisoblanadi.

2-jadval

Boshqaruvni takomillashtirish bo‘yicha amaliy choralar

Muammo yoki ehtiyoj	Taklif etiladigan chora	Monitoring ko‘rsatkichi
Strategik maqsadlar ijrosi sust	Har bir maqsadni KPI, muddat va mas’ul shaxs bilan bog‘lash	KPI bajarilish foizi
Hisobotlar kechikishi	Elektron hisobot va yagona ma’lumotlar panelini joriy etish	Hisobotni tayyorlash vaqti
Risklar yetarli nazorat qilinmasligi	Risklar reyestri va muntazam qayta ko‘rib chiqish tartibi	Yuqori risklar bo‘yicha bajarilgan choralar ulushi
Rag‘batlantirishning qisqa muddatga yo‘naltirilishi	Mukofotlashni moliyaviy va uzoq muddatli maqsadlar bilan bog‘lash	Natijadorlik va risk ko‘rsatkichlari
Aksiyadorlarga axborot yetkazish sust	Oshkor etish kalendari va mas’uliyatni belgilash	O‘z vaqtida e’lon qilingan axborot ulushi

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

Taklif etilgan choralarni joriy etishda ularning iqtisodiy samaradorligi ham baholanishi lozim. Raqamli tizimlar va yangi nazorat mexanizmlari dastlabki xarajatlarni talab qilishi mumkin, shu sababli joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilib, har bir bosqichda natijalar o‘lchanishi maqsadga muvofiq. Boshqaruv samaradorligi bilan moliyaviy natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tekshirish uchun bir necha yilni qamrab olgan ma’lumotlardan foydalanish va jamiyat hajmi, qarzdorlik hamda likvidlik kabi omillarni nazorat qilish tavsiya etiladi.

Muhim metodologik cheklov shundaki, mazkur maqola bo‘limida alohida aksiyadorlik jamiyatlarining real ma’lumotlari asosida hisoblangan natijalar keltirilmagan. Shu sababli jadvallar baholash mezonlari va boshqaruv choralari bo‘yicha mualliflik takliflarini ifodalaydi; ular statistik jihatdan tasdiqlangan empirik natijalar sifatida talqin qilinmasligi kerak.

Xulosa qilib aytganda, aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv samaradorligini oshirish uchun strategik rejalashtirish, moliyaviy nazorat, axborot shaffofligi, risklarni boshqarish va raqamli vositalarni o‘zaro bog‘langan tizim sifatida tashkil etish zarur. Integral indeks va aniq monitoring ko‘rsatkichlari boshqaruvdagi ustuvor muammolarni aniqlashga yordam beradi, biroq ularning amaliy qiymati ishonchli ma’lumotlar bilan sinovdan o‘tkazilgandagina to‘liq namoyon bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan nazariy tahlil va umumlashtirishlar shuni ko‘rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini samarali boshqarish korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, investitsion jozibadorligini oshirish, aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish hamda uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishga erishishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish faqat ma’muriy nazorat va joriy moliyaviy natijalarni kuzatish bilan cheklanmasdan, strategik rejalashtirish, korporativ hisobdorlik, risklarni boshqarish, raqamli texnologiyalardan foydalanish va manfaatdor tomonlar bilan samarali hamkorlikni ham qamrab olishi zarur.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘zaro bog‘liq holda baholash muhim ahamiyatga ega. Xususan, kuzatuv kengashining faoliyati, ijroiya organining mas’uliyati, moliyaviy nazoratning sifati, axborotlarning ochiqligi, aksiyadorlar huquqlarining ta’minlanishi va zamonaviy axborot tizimlarining joriy etilishi korporativ boshqaruvning umumiy natijadorligini belgilovchi asosiy yo‘nalishlar hisoblanadi. Ushbu elementlardan birining yetarli darajada rivojlanmaganligi boshqa boshqaruv mexanizmlarining ham samarali ishlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Tahlil davomida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini takomillashtirishda yagona, kompleks baholash yondashuvini shakllantirish zarurligi asoslandi. Bunda boshqaruv samaradorligini faqat sof foyda yoki rentabellik ko‘rsatkichlari orqali aniqlash yetarli emas. Chunki moliyaviy natijalar korxonaning qisqa muddatli faoliyatini ifodalashi mumkin, biroq boshqaruv sifati, risklarga

tayyorlik, shaffoflik va strategik qarorlarning asoslanganligi kabi omillar kelgusidagi barqaror rivojlanish imkoniyatlarini ham belgilaydi.

Shu munosabat bilan maqolada aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv tizimini kompleks baholash uchun strategik boshqaruv, moliyaviy nazorat, axborot shaffofligi, risklarni boshqarish va raqamli boshqaruv yo‘nalishlarini birlashtiruvchi integral ko‘rsatkichdan foydalanish taklif etildi. Mazkur yondashuv boshqaruv tizimining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, mavjud muammolarni ustuvorlik darajasi bo‘yicha tartiblash hamda takomillashtirish choralarini belgilashga yordam beradi. Biroq ushbu modelni amaliyotga joriy etishdan oldin ko‘rsatkichlarning vaznlarini ekspert baholashi yoki statistik usullar yordamida asoslash va real korxona ma’lumotlari bilan sinovdan o‘tkazish lozim.

Tadqiqot xulosalaridan kelib chiqib, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini boshqarish usullari va uslublarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, korporativ boshqaruv organlari vakolatlari va mas’uliyatini aniq belgilash lozim. Kuzatuv kengashi va ijroiya organi o‘rtasidagi funksional vazifalar aniq taqsimlanishi, strategik qarorlar qabul qilish va ularning ijrosini nazorat qilish mexanizmlari takomillashtirilishi zarur. Har bir boshqaruv organi faoliyati aniq maqsadli ko‘rsatkichlar, muddatlar va natijalarni baholash mezonlari asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, moliyaviy nazorat va ichki audit tizimini kuchaytirish zarur. Aksiyadorlik jamiyatlarida daromadlar va xarajatlar monitoringini muntazam amalga oshirish, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlash va ichki nazoratdagi kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlashga alohida e’tibor qaratish kerak. Ichki auditning mustaqilligi va tavsiyalar bajarilishi ustidan nazoratni kuchaytirish moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Uchinchidan, axborot shaffofligi va aksiyadorlar bilan muloqot mexanizmlarini takomillashtirish kerak. Jamiyatning moliyaviy holati, muhim korporativ qarorlari, risklari va rivojlanish istiqbollari haqidagi ma’lumotlar amaldagi qonunchilik hamda axborotni oshkor etish talablariga muvofiq o‘z vaqtida taqdim etilishi lozim. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishlarida ishtirok etish, savollar berish va o‘z manfaatlarini qonuniy himoya qilish imkoniyatlarini kengaytirish boshqaruvga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

To‘rtinchidan, korporativ boshqaruv jarayonlariga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish maqsadga muvofiq. Elektron hujjat aylanishi, raqamli hisobotlar, avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari va ma’lumotlarni tahlil qilish vositalari boshqaruv qarorlarini tezkor hamda aniq qabul qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonida axborot xavfsizligi, ma’lumotlarning maxfiyligi va axborot tizimlarining uzluksiz ishlashini ta’minlash talab etiladi.

Yuqoridagi takliflarni amalga oshirish aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv jarayonlarining izchilligini oshirish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish, axborot ochiqligini yaxshilash va investitsion jozibadorlikni mustahkamlashga xizmat

qilishi mumkin. Shu bilan birga, takliflarning natijadorligi jamiyatning faoliyat sohasi, mulkchilik tarkibi, moliyaviy imkoniyatlari va korporativ boshqaruv tizimining amaldagi holatiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ularni joriy etishda korxonaning individual xususiyatlari va mavjud muammolarini hisobga olish zarur.

Xulosa qilib aytganda, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini boshqarish usullari va uslublarini takomillashtirish uzluksiz jarayon bo‘lib, u tashkiliy, iqtisodiy, moliyaviy va texnologik mexanizmlarning o‘zaro uyg‘unligini talab qiladi. Samarali korporativ boshqaruv tizimini shakllantirish uchun boshqaruv organlari mas’uliyatini kuchaytirish, moliyaviy nazoratni takomillashtirish, raqamli yechimlardan foydalanish va boshqaruv samaradorligini kompleks baholashga asoslangan yondashuvlarni rivojlantirish muhimdir. Mazkur yo‘nalishlarning izchil amalga oshirilishi aksiyadorlik jamiyatlarining barqaror rivojlanishi, aksiyadorlar manfaatlarining himoya qilinishi va uzoq muddatli iqtisodiy qiymat yaratilishi uchun zarur tashkiliy-iqtisodiy asoslarni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. OECD. G20/OECD Principles of Corporate Governance 2023. Paris: OECD Publishing, 2023. https://doi.org/10.1787/ed750b30-en.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi O‘RQ-370-sonli **“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”**gi Qonuni. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: https://lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-martdagi O‘RQ-760-sonli Qonuni. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: https://lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentabrdagi PQ-291-sonli qarori. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: https://lex.uz.

5. Jensen M. C., Meckling W. H. Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure // Journal of Financial Economics. — 1976. — Vol. 3, No. 4. — P. 305–360. https://doi.org/10.1016/0304-405X(76)90026-X.

6. Freeman R. E. Strategic Management: A Stakeholder Approach. — Boston: Pitman, 1984.

7. Shleifer A., Vishny R. W. A Survey of Corporate Governance // The Journal of Finance. — 1997. — Vol. 52, No. 2. — P. 737–783. https://doi.org/10.1111/j.1540-6261.1997.tb04820.x.

8. OECD. OECD Corporate Governance Factbook 2023. — Paris: OECD Publishing, 2023. https://doi.org/10.1787/6d912314-en.

9. Solarino A. M., Boyd B. K. Board of Director Effectiveness and Informal Institutions: A Meta-analysis // Global Strategy Journal. — 2023. — Vol. 13, No. 1. — P. 58–89. https://doi.org/10.1002/gsj.1468.

10. Altın, korporativ boshqaruvga oid meta-tahlil tadqiqoti. — 2023. https://dergipark.org.tr/en/pub/muvu/article/1284394.

11. Calderon-Monge E., Ribeiro-Soriano D. The Role of Digitalization in Business and Management: A Systematic Literature Review // Review of

Managerial Science. — 2024. — Vol. 18. — P. 449–491. https://doi.org/10.1007/s11846-023-00647-8.

12. Ahdadou M., Aajly A., Tahrouch M. Enhancing Corporate Governance Through AI: A Systematic Literature Review. https://doi.org/10.1080/09537325.2024.2326120.

13. Martiny A. et al. ESG Performance: A Systematic Literature Review // Journal of Cleaner Production. — 2024. — Vol. 456. — Article 142213. https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2024.142213.

14. World Bank. Uzbekistan: Integrated State-Owned Enterprises Framework (iSOEF) Assessment. — Washington, DC: World Bank, 2023.

15. OECD. G20/OECD Principles of Corporate Governance 2023. — Paris: OECD Publishing, 2023. https://doi.org/10.1787/ed750b30-en.

17. OECD. OECD Guidelines on Corporate Governance of State-Owned Enterprises 2024. — Paris: OECD Publishing, 2024. https://doi.org/10.1787/18a24f43-en.

18. Calderon-Monge E., Ribeiro-Soriano D. The Role of Digitalization in Business and Management: A Systematic Literature Review // Review of Managerial Science. — 2024. — Vol. 18. — P. 449–491. https://doi.org/10.1007/s11846-023-00647-8

2026-yil, oktabr. №10-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy